https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Bakirova Dildora Rasuljon qizi

XULQIDA OG‘ISHI BOR BOLALAR BILAN KORREKSION-PEDAGOGIK ISHNING ZAMONAVIY MODELI

Annotatsiya

Ushbu tadqiqotda xulqida og‘ishi bor bolalar bilan ishlashda qo‘llaniladigan zamonaviy korreksion-pedagogik modelning tarkibiy qismlari, metodlari va samaradorlik ko‘rsatkichlari o‘rganiladi. Diagnostika, psixokorreksion texnologiyalar, oila-maktab hamkorligi va ijtimoiy-emotsional ta’lim yondashuvlarining integratsiyasi mazkur modelning asosini tashkil etadi.

Kalit so‘zlar

xulqida og‘ish, korreksion pedagogika, psixokorreksiya, ijtimoiy-emotsional ta’lim, deviantlik.

Bugungi kunda ta’lim tizimini nafaqat bilim berish balki bolalarning ijtimoiy-emotsional farovonligini ta’minlash vazifasini ham bajaradi. Xulqida og‘ish (agressivlik, impulsivlik, qoidabuzarlik, emotsional beqarorlik, negativizm va boshqalar) ta’lim jarayoniga jidiy ra’sir ko‘rsatadi va o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvini qiyinlashtiradi.

Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, xulq og‘ishlarining sabablari biologik omillar, oilaviy tarbiya xususiyatlari, kommunikativ ko‘nikmalarning rivojlanmaganligi va maktab muhitidagi psixologik omillar bilan bog‘liq. Shuning uchun xulqida og‘ishi bor bolalar bilan ishlash jarayoni integrativ, tizimli va zamonaviy texnologiyalarga tayangan model asosida tashkil qilinishi zarur.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning quyidagi iqtibosi bilan mavzuga kirish qilmoqchiman, “Ta’lim muassasalari faoliyatini tubdan yaxshilash, eng ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish, har jixatdan zamonaviy tizim yaratish bugungi kuning talabi, ta’limni rivojlantirmasdan hech bir sohani rivojlantirib bo‘lmaydi[1]”.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Har birimiz ijtimoiy nomaqbul xatti-harakatlarning turli ko‘rinishlari - tajovvuzkorlik, yomon odatlar, noqonuniy xatti-harakatlarga duch kelamiz… Bunday muammolar bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar ko‘p yillardan buyon bir qator savollarga javob izlashdi. Bunday xatti-harakatlarning sababi nimada? Insonning o‘ziga va boshqalarga qayta-qayta zarar yetkazishiga nima majbur qiladi? Bundan qanday qochish kerak? Bunday xulqli bolalarda uchraydigan ijtimoiy-pedagogik muammolarga qanday yechim topsa bo‘ladi?

Muayyan jamiyatda qabul qilingan me’yorlarga to‘g‘ri kelmaydigan xatti-harakatlar odatda ilmiy adabiyotlarda deviant deb ataladi. Zamonaviy sharoitda “og‘ish” va deviant “xatti-harakatlar” hodisalari nostandart, ko‘p qirrali va turli darajadagi va turli darajadagi va murakkablikdagi og‘ishlar ko‘lami bilan tavsiflanadi. Shuni alhida ta’kidlash kerakki, og‘ishlar ko‘pincha o‘smirlik davrida paydo bo‘ladi va mustaxkamlanadi. Natijada, deviantlik an’anaviy ravishda hayotining turli sohalarida (o‘qish, xatti-harakatlar, muloqot va h.k.) muammo va qiyinchiliklarga duch kelgan o‘smirning shaxsiyatining eng muhim xususiyati sifatida qabul qilinadi. Ko‘plab o‘qituvchilar va psixologlarning ishlarida o‘spirinlar muammolari ko‘rib chiqiladi. Deviant xulq-atvor sabablari bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Bu haqida batafsil A.S.Makarenko shunday degan edi: “Bolalarning jinoyatchi bo‘lib ketishiga nafaqat atrof-muhit, balki birinchi navbatda yomon ota-onalar va yomon o‘qituvchilar ham aybdor. Jinoyatchilar nafaqat kam ta’minlangan va kambag‘al oilalarda, balki badavlat oilalarda ham yetishib chiqadi. Badavlat oilalardan bo‘lganlar ham jinoyat sodir etishadi. Barcha jinoyatchilar, xoh voyaga yetmaganlar, ham kattalar, hammasi oilada tarbiyalangan va o‘sib, maktabda o‘qigan. Bu shuni anglatadiki, gap nafaqat obektiv og‘ir turmush sharoitida balki birinchi navbatda sub’ektiv sharoitlarda bolalarni noto‘g‘ri tarbiyalashda. Yomon tashkil etilgan jamoadagi eng yaxshi o‘g‘il bolalar yomon o‘qituvchilar tomonidan noto‘g‘ri ta’limning salbiy ta’siri ostida juda tez yovvoyi hayvonga aylanadi. Haqiqatdan ham shunday. Eng zo‘r bolalarni yig‘ing yoniga yomon o‘qituvchilarni qo‘ying, bir oy ichida ular

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

koloniyani, bolalar uyini, maktabni va bu o‘qituvchilarni, o‘zlarini ham vayron qiladilar.” Makarenko o‘zining pedagogik faoliyatida “Insonga imkon qadar ko‘proq talablar va imkon qadar ko‘proq hurmat qilish” tamoyili asosida ishladi.

Xulqi og‘ishgan bolalarga yordam berish ularning psixologik holatini yaxshilash va ijtimoiy moslashuvini ta’minlash maqsadida, individual psixologik yordam zarur. Axloqiy qadryatlar shaxsning o‘zini-o‘zi anglashiga boshqalar bilan aloqalarni shakllantirishga yordam beradi. Ular oila, jamiyat va madaniyat ta’sirida shakllanadi. Axloqiy qadryatlar shaxsga o‘z xulq-atvorini baholash va to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri qabul qilishda yordam beradi. Bu xususda Sharq mutafakkirlarining ham o‘ziga xos qarashlari mavjud. Zamonaviy korreksion-pedagogikada xulqida og‘ishi bor bolalar bilan ta’lim tizimida modullarga bo‘lib o‘rganish ma’qul.

Zamonaviy korreksion-pedagogik model komponentlari:

A) Pedagogik modul -individual o‘quv rejalarini tuzish;

- Ijobiy mustahkamlash strategiyalari;
- O‘zini boshqarish (self-management) ko‘nikmalarini rivojlantirish.

B) Psixokorreksion modul - kognitiv;

Emotsional-regulyatsiya treninglari;

-Agressiyani boshqarish dasturi.

- Art-terapiya, musiqaterapiya, sensor integratsiya.

C) Ijtimoiy-adaptiv modul -

- Ijtimoiy-ko‘nikmalar treningi;
- Rolli o‘yinlar va muloqot simulyatsiyasi;

-Maktab-ota-ona-mutaxassislar hamkorligi.

D) Monitoring moduli -


- Har oy takroriy tahlil;
- Xulq-atvor xaritalari;
- Individual dinamikani kuzatish grafiklari;

Modelning asosiy xususiyati — ta’lim, psixokorreksiya va ijtimoiy moslashtirishning yagona integratsiyalangan tizimda ishlashi. Bu yondashuv

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

bolalarning ijtimoiy faoliyatga qo‘shilishini va ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyatini ta’minlaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, xulqida og‘ishi bor bolalar bilan ishlashda zamonaviy korreksion-pedagogik modelning qo‘llanilishi samaralidir. mazkur model xulqida og‘ishi mavjud o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvi, o‘quv faoliyati va psixologik farovonligini sezilarli darajada yaxshilaydi.



Tajribalar shuni tasdiqlaydiki, individual yondashuv, ijobiy motivatsiya, ijtimoiy-emosional kompetensiyalarni shakllantirish va xulqni boshqarishning pedagogik-psixologik mexanizmlaridan muntazam foydalanish xulqi og‘ishgan bolalarning rivojlanish dinamikasida sezilarli ijobiy natijalarga olib keladi. Shu bilan birga, o‘qituvchi va psixologlarning professional tayyorgarligi, ta’lim muassasasida qo‘llab-quvvatlovchi muhitning yaratilishi korreksion jarayonning barqaror samaradorligini belgilovchi asosiy shartlardandir.

Shunday qilib, taklif etilayotgan zamonaviy korreksion-pedagogik model xulqida og‘ishi bo‘lgan bolalarni ijtimoiylashtirish, ularning shaxsiy salohiyatini ochish va jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasini ta’minlashga xizmat qiluvchi samarali tizim sifatida qaraladi. Mazkur modelni ta’lim amaliyotiga keng joriy

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

etish xulq-atvor muammolarining oldini olish hamda bolalarda sog‘lom psixologik rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. [1]Mirziyoyev Shavkat Miromonovich.Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Sh.M.Mirziyoyev. Toshkent O‘zbekiston, 2016.;

2. M.Shavkatjonova, Z,Saidova “Deviant xulqli bolalarda ijtimoiy-pedgogik muammolar bartaraf etish yo‘llari”. “SCIENSE AND EDUCATION ” SCIENTIFIC JOURNAL/WWW.OPENSCIENCE.UZ.;

Achenbach T.M. Manual for the Child Behavior Checklist/4–18. Burlington: University of Vermont, 2001.

2. Barkley R. Attention-Deficit Hyperactivity Disorder: A Handbook for Diagnosis and Treatment. Guilford Press, 2015.

3. Koženova L., Petrova M. Behavioral Disorders in Childhood. Prague: Charles University Press, 2018.

4. Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. Toshkent: O‘qituvchi, 2019.

5. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development. Harvard University Press, 2005.

6. Kazakov A.I. Psixologik korreksiya metodlari. Moskva: Akademiya, 2020.

7. Uzbek Pedagogika Ensiklopediyasi. 2-jild. Toshkent, 2022.